




2021- yil yanvar-aprel oylarida  
Samarqand viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 425,3 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **1 507,5 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,4 %ni** tashkil etdi.

### **Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)**

**1 507,5  
mlrd. so'mga**

**Hajmning o'sishi**

**5 425,3  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar hajmi**

**125,4 %**

**O'sish sur'ati**



**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 425,3</b>	<b>125,4</b>
<b>shu jumladan:</b>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	256,0	111,4
Moliyaviy xizmatlar	776,4	118,6
Transport xizmatlari	1 225,0	126,3
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>1 171,6</b>	<b>128,9</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	181,9	109,1
Savdo xizmatlari	1 549,0	117,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	125,9	135,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	364,8	172,4
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	94,1	144,4
Ijara xizmatlari	174,0	145,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	145,1	139,5
Shaxsiy xizmatlar	219,3	134,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	131,9	149,6
Boshqa xizmatlar	181,9	125,4

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

### Nisbatan yuqori ko'rsatkich

#### Nisbatan past ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **28,6 %**ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, %da**




**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **22,6 %**.

**Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi  
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)**



**Avtomobil  
transporti  
xizmatlari**



**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.


Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

### **Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, %da**

**2020- y. yanvar-aprel**



**2021- y. yanvar-aprel**



2021- yil yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,6 %**ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida yo'lovch tashish xizmatlarining ulushi **65,9 %**ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,6** %ni tashkil etib, bu esa **1 549,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **1 166,6** mlrd. so'mga yoki umumiyligi hajmning **29,8** %iga to'g'ri kelgan.

### **Savdo xizmatlari**

**1 166,6**

**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**1 549,0**

**92,2**

**O'sish sur'ati, %da**

**117,4**

**2020- y. yanvar-aprel**


**2021- y. yanvar-aprel**

**2021- yil yanvar-aprel**


**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 75,5 %ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi  
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)**



**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosidan  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda**



**Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar**



**Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi 75,6 %ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-aprel oylarida)**

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **776,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **620,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyl xizmatlar hajmidagi ulushi **14,3 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **15,8 %**ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **156,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **18,6 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **137,4 %**ni tashkil etgan.



**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,4 %**ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,5 %** oralig'ida qayd etildi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari yordamchi moliyaviy faoliyatning ulushi umumiyligi hajmning **2,1 %**ni tashkil etadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy  
faoliyat**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **93,3 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,7 %**ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **3,0 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.


### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-aprel oylarida)

2021- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **256,0** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **111,4 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**  
2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turi hajmi **223,3** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,7 %**iga teng bo'lgan.  
O'sish sur'ati esa **115,7 %**ni tashkil etgan.



**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **364,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **6,7 %**ni tashkil etdi.


2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **172,4 %**ni tashkil etdi.

**203,7  
mlrd.  
so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**

**364,8  
mlrd.  
so'm**

**2020- y.  
yanvar-  
aprel**



**2021- y.  
yanvar-  
aprel**

**104,1 %**

**O'sish sur'atlari,  
%da**

**172,4 %**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **203,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **4,1 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

146,2  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-aprel

181,9  
mlrd. so'm

2021- y.  
yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi

84,3 %

109,1 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **35,7 mlrd. so'mga** ortdi.

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**

**2021- y. yanvar-aprel**

**87,4 %**

**12,6 %**

**15,8 %**

**84,2 %**



**2021- y. yanvar-aprel**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar**



**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **87,4 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,2 %**ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

**2020- y.**

**yanvar-aprel**

**2021- y.**

**61,3  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar  
hajmi**

**94,1  
mlrd. so'm**

**94,2 %**

**O'sish  
sur'ati**

**144,4 %**

**1,6 %**

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

**1,7 %**



**2021- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### **Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari**

#### **Xizmatlar hajmi**

**1 371,7  
ming so'm**



#### **Hajmning o'sishi**

**363,2  
ming so'mga**

#### **O'sish sur'ati**

**123,2 %**

2021- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 371,7 ming so'mga** yetdi.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **123,2 %ni** tashkil etdi.

#### **Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 008,5 ming so'mni** tashkil etgan.